

O'ZBEK TILIDA KOSMONIMLARNING HOSIL BO'LISH BOSQICHLARI

Qulniyozova Shoira Norboyevna

Termiz davlat universiteti pedagogika instituti xorijiy til va adabiyoti I kurs magistranti

Ilmiy rahbar: Maxmaraimova Shohista

Filologiya fanlari doktori, Termiz davlat universiteti professori

Email: qulniyozovashoira@gmail.com

Tel: +99899 378 84 89

Annotatsiya: Markaziy Osiyo xalqlarining qadim ajdodlari juda olis zamonlardayoq osmondagi sayyoralar hamda yulduzlarning joylashuvi, samo gumbazidagi harakat yo'nalishini kuzatishga asoslangan astrologik tajribalarga ega bo'lishgan. Manbalarda ajdodlarimiz qadim zamonlardan buyon yulduzlar holatiga qarab ob-havo o'zgarishlari, yil fasllarining almashinishini aniqlaganliklarini dalillaydigan ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Ushbu maqolada o'zbek tilida kosmonimlarning hosil bo'lish xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, kosmonimlar, fazo jismlari, ob'ekt, atoqli otlar.

Asosiy qism

O'zbek kosmonimiyasi tarkibida tilimizning qadimgi davrlaridan buyon qo'llanib kelanayotgan yuzlab nomlar mavjud. Davrlar o'tishi bilan ayrim nomlarning shakli va ma'nosida turli o'zgarishlar sodir bo'lgan. Shunga qaramasdan, o'zbek kosmonimiyasi tizimini lisoniy tadqiq qilish hanuzgacha maxsus tekshirish ob'ekti bo'lgan emas. Uning hajmi vazifaviy ko'lami belgilanmagan, umumxalq adabiy tilidagi mavqei aniqlanmagan xalq so'zlashuv nutqining, boshqa xalqlar tilini bu sathi rivojiga qo'shgan hissasi ham o'rganilmagan. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan ishlar to'plangan materiallarning yetarli emasligini, ushbu muammo hali yetarli darajada madaniyati, dini, ilm-faniga astronomik bilimlar muhim rol o'ynagan. O'zbek tili yozma yodgorliklarga boy til bo'lib, tarixiy taraqqiyotining turli davrlarida yaratilgan yozma manbalarda kosmonimlarga doir materiallar ham juda ko'p. Bir guruh o'zbek nomshunoslari ta'kidlaganlaridek; o'zbek tili tarixida mavjud bo'lgan va ko'plab tarixiy yozma yodgorliklar hamda tarixiy asarlar tilida saqlanib turgan son-sanoqsiz atoqli otlar, ularning paydo bo'lishi, yasalishi va shakllanishi, ma'no va vazifaviy xususiyatlari, boshqa til lisoniy hamda tarixiy-madaniy, ma'rifiy tomonlari fan uchun qorong'uligicha qolmoqda". Bu fikr o'zbek tili kosmonimlari uchun ham tegishlidir. Kosmik tadqiqotlarning rivojlanishi natijasida yuzlab kosmik ob'ektlar nomi paydo bo'ldi. Bu nomlar qaysi tilga mansub bo'lishidan qat'iy nazar o'zbek tili leksikasidan mustahkam joy olib, hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilmoqda. O'tmishda osmon jismlari inson hayotining ajralmas qismiga aylangani bois, kishilar har bir kosmik obyektning xususiyatlarni yaxshi bilgan va bu haqdagi bilimlarni keyingi avlodlarga qoldirgan. Zamonaviy optik qurilmalar yordamida turli xil yangi kosmik ob'ektlarning kashf qilinishi bilan osmon jismlarining minglab yangi nomlari yuzaga kela boshladi. Kishilar o'zlarining hayot kechirish jarayonida uchraydigan, duch keladigan predmet va ob'ektlarni bir-biridan farqlashga majbur bo'lgan. Chunki, kishilarning bir-biri bilan aloqasi jarayonida osmon jismlarining nomlari ham huddi ish qurollari va boshqa predmet nomlari singari zarur bo'lgan. Osmon jismlarining nomlanishi katta-kichikligi yorug'ligi samoda hosil qilgan proyeksiyasi kabi farqlovchi belgilari ularni nomlash uchun

asos bo'lgan. Chunki, har qanday nomlash jarayoni o'xshash va farqlanuvchi belgilarning qiyasiga tayanadi. Kuzatishlar natijasida o'zbek kosmonomiyasi tizimida atalish motivlarining norasmiy hamda rasmiy kabi ko'rinishlari mavjudligi aniqlandi.

“Burj” nomlari 12 ta bo'lib har birining o'z nomi bor.

Savr – mazkur kosmonim arab tilida “ho‘kiz” ma‘nosini anglatuvchi savr so‘zidan olingan.

Hulkar – savr burjida joylashgan oltita yorqin yulduzdan iborat to‘da. Hulk deb nomlanadi. Hulkar yulduzi dunyo xalqlari orasida turlicha nomga ega. Hulkarning arabcha Surayyo nomi ham turkiycha nomiga ma‘nodoshdir. Sayyoralar nomlari. Utorid, Zuhra, Venera, Merkuriy, Yupiter, Nohid, Cho‘lpon, Tong yulduzi, Yo‘lchi yulduz, Yer, Mirrix – Mars, Mushtariy.

Kosmonomiyaga kiruvchi mikroko‘lamning tarkibi:

Venusionim – Venera sayyorasi yuzasida joylashgan alohida ob’ektlarga berilgan atqli ot.

Marsionim – Mars rel’efidagi har qanday alohida olingan tabiiy ob’ektga berilgan atqli ot.

Merkuronim – Merkuriy sayyorasi yuzasidagi alohida olingan tabiiy ob’ektga berilgan atqli ot.

Selenonim – Oy yuzasidagi har qanday alohida ob’ektning atqli oti.

Kosmonomika – osmon jismlarining nomi bo‘lib, ular yulduzlar, sayyoralar planetalar nomi. Osmon jismining o‘rmini o‘zgarishi yerdagi vaziyatni qadimdan ilm-fan ahllariga ayon bo‘lgan. Kompas bo‘lmagan vaqtda yulduzlarni mo‘ljal qilib savdo karvonlari kechayu-kunduz yo‘l yurishgan. Xalq ertaklarida qahramonlar o‘z yo‘llarini kechqurunlari yulduzlarga ularning joylashish o‘rinlariga qarab topishgani bayon etilgan. Kosmonimlarning o‘ziga xos xususiyatlari borligi ko‘p ijodkor va olimlarning e‘tiborda bo‘lganligi hammaga ma‘lum. Masalan, VIII asrning ikkinchi yarmida Xorazmda yashagan Muso al-Xorazmiy “Zij” nomli astronomiya jadvalini yozgan. Forobiy esa astronomiyaga oid asarlar yozib, osmon jismlarining o‘ziga xosliklarini bayon etgan. Abu Rayhon Beruniy zo‘r astronom sifatida “Astronomiya kalidi”, “Mas‘ud jadvali” asarlari bilan o‘z davrida O‘rta Osiyoda astronomiya fanining taraqqiyotiga bebaho hissa qo‘shdi, yerning yumaloqligi, uning tortish quvvati fasllarning o‘zgarishi yerning va boshqa sayyoralarning quyosh atrofida aylanishi to‘g‘risidagi ilmiy fikrga yaqinlashdi hamda astrologiyani fosh qildi. XI asrning donishmandi Yusuf Xos Hojib o‘zining 1069-1070-yillarda yozib tugallangan “Qutadg‘u-Bilik” nomli 73 ta bobdan iborat dostonining muqaddimasida yettita osmon jismi to‘g‘risida maxsus to‘xtalgan. 1. Oy. 2. Mirrix-Mars 3. Zuhra-Venera 4. Quyosh 5. Aturod, Merkuriy 6. Mushtariy-Yupiter 7. Kayvon-Saturn.

Ulug‘bek nomi bilan shuhrat qozongan Muhammad Tarag‘ay “Zichi Ulug‘bek” nomi bilan mashhur bo‘lgan astronomik jadvali astronomiya fanini yangi taraqqiyot pog‘onasiga ko‘tardi. 1018 ta yulduzni holati va harakatini o‘rganib chiqdi. U o‘zidan oldin o‘tgan Erotosfen, Gipparx, Ptolomey, al-Bottoniy, Ibn Yunus, Tusiy va boshqa astronomlarning bu sohadagi muvaffaqiyatlarini orqada qoldirgan. Bularning hammasi mamlakatimizda olimlar astronomiyaga jiddiy e‘tibor qilishganini tasdiqlaydi. Hozirgi kunda astronomlar yangi-yangi osmon jismlarini zamonaviy teleskoplar bilan topib, nomlashmoqda. Osmon jismlari nomlarini tadqiq qilgan rus olimi Y.A. Karpenkoning ta’kidlashicha, sayyora va yulduzlarni xudolar nomi bilan atash sharqdan kelib chiqqan bo‘lib, faqat Arastu (er.av. 384-322 yillar) davriga kelgandagina yunonlar yulduzlarni o‘z xudolari nomi bilan atay boshlaganlar. “Avesto” kitobidagi kosmonimlar bu fikrlarni yanada tasdiqlaydi. Yulduz va sayyoralarga iloh sifatida qarash, ularga sig‘inish “Avesto” da ham muhim o‘rin egallaydi. Kitobda jami 21 yasht bo‘lib, bu yashtlardan bir nechitasi osmon jismlariga alqovlardan iborat:

“Moh yasht” oyga, “Xurshid yasht” va “Mehr yasht” – quyoshga, “Tiyr yasht” “Siriyus yulduziga”, “Vanant yasht” – Antares yulduziga bag‘ishlangan. Ushbu osmon jismlariga sajda qilingan, sharaflangan. “Avesto” ning yettinchi yashti bo‘lgan “tiyr yasht” da buning isbotini topish mumkin:

Yulduzlarning hamrohi,
Tishtiriyaga namoz,
Somon yo‘li bag‘rida,
Somon yo‘li yulduzlariga,
Bariga alqovimiz.

Shunday qilib, Ajdodlarimiz qadim zamonlardanoq har bir osmon jismlari va yulduzlarni muayyan nomlar bilan atab, ular to‘g‘risida xilma-xil asotiriy tasavvurlar va ishonch-e‘tiqodlarni yaratganlar. Va shu bilan birga o‘zbek kosmonomikasini rivojlantirishga ham katta hissa qo‘shganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-2-tomlar. Moskva: Rus tili, 1981.
2. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent, 2001.
3. O‘zbek terminologiyasida leksik variantlar. Toshkent: Fan-1980.
4. Primov A.I. O‘zbek tili kosmonimlarining lisoniy xususiyatlari: f.f.n. dis. avtoref. Toshkent, 2009.